AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI



Toshkent – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

Toshkent – 2025

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

Akademik Ubaydulla Karimov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 510 bet.

Mas’ul muharrir:

Bahrom Abduhalimov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Salima Eshonova – filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Tahrir guruhi:

Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Farrux Kamoliddinov,
Doston Tojiyev, Sherzod Karimov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq renessansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

ISBN 978-9910-9030-5-2

Ostonov Jahongir Davlatovich[1]

MARKAZIY OSIYONING ISLOMLASHUVIGA BAG‘ISHLANGAN FRANSUZ TILIDAGI BA’ZI TADQIQOTLAR

SOME FRENCH-LANGUAGE STUDIES ON THE ISLAMIZATION OF CENTRAL ASIA

Abstract. *This article examines the Islamization of Central Asia through the lens of two key French-language studies:* Samarcande et Samarra: Élites d’Asie centrale dans l’Empire abbasside *by Étienne de la Vaissière and* Samarcande et le Sogd à l’époque abbasside *by Yuri Karev. Both works explore the transformation of the region’s political and social structures under Abbasid rule, shedding light on the role of local elites in the process of religious and cultural integration. By analyzing these contributions, the paper highlights the complexities of Islamization in Central Asia.*

Oxirgi 30 yilda arxeologik tadqiqotlar natijalarining jalb qilinishi Markaziy Osiyoning arablar istilosi va islomlashuv davri tarixshunosligida katta qadamlarni tashladi, deyish mumkin. Bunday imkoniyatga ikki omil sabab bo‘ldi. Birinchidan, Xitoyning tashqi dunyoga ochilishi bo‘lsa, ikkinchidan, Sovet ittifoqining parchalanib ketishi. Aynan shu ikki omil mintaqa tarixshunosligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ungacha olib borilgan tadqiqotlar asosan islomgacha bo‘lgan davr tarixshunosligini boyitishga xizmat qildi. Buning sababi esa ayrim siyosiy qarashlarga ko‘ra Xitoy yoki Sovet fani asosan ushbu davrga urg‘u berganida edi. Natijada, yangi tadqiqotlar ham shu bilimlarga tayangan holda shakllandi. Ammo, asta-sekin Samarqand, Poykent va Oq Beshimdagi qazishmalarning natijalari islom davri tadqiqotlari tarkibiga kirib bormoqda. Shu bilan birga, Tohiriylar, Somoniylar va Qoraxoniylar haqidagi izlanishlar ham davom etmoqda. Ayniqsa, bu jarayon Markaziy Osiyoning dastlabki islomiy davrini o‘rganish uchun qulay muhit yaratmoqda, chunki mahalliy, arab va xitoy manbalari, shuningdek, arxeologik va yozma dalillar bu davr haqida ancha keng va boy ma’lumotlarni taqdim etmoqda [5: 7].

Markaziy Osiyo tarixidagi mazkur ikki-uch asr, ya’ni VII–IX asrlar mintaqa tarixida juda katta o‘zgarishlarni boshidan kechirdiki, uni faqatgina miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik o‘rtasida Oks sivilizatsiyasining yo‘qolib ketishi va 70 yillik Sovet davri bilan taqqoslash mumkin. Hatto demografik va iqtisodiy jihatdan jiddiy talafot keltirib chiqargan mo‘g‘ul

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi.
E-mail: ostonovj@gmail.com. ORCID: 0009-0001-9995-4909.

bosqini ham mintaqadagi madaniy jarayonlarning bunday qayta koʻrib chiqilishiga olib kelmadi [10: 443–471].

Soʻnggi yigirma yillikda fransuz markaziyosiyoshunosligida mintaqaning islomlashuviga bagʻishlangan bir nechta tadqiqotlar amalga oshirildi. Ular orasida Etyen Delavesyerning «Samarcande et Samarra. Élites d'Asie centrale dans l'empire abbasside» kitobini alohida ta'kidlash lozim [5]. Muallif kitobning kirish qismida tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo elitalarining Abbosiy imperiyasiga intergatsiyasini oʻrganish va shu bilan birga mamluk[1] instituti kelib chiqishiga oid bahslarga yangi ma'lumotlar kiritishini maqsad qilganini ta'kidlaydi [5: 5]. Buning uchun u arxeologik va tarixiy manbalarni (xitoy, arab, fors va soʻgʻdiy manbalarini) juda nozik tarzda keltiradi va qayta koʻrib chiqadi. Albatta, bu manbalar allaqachon ma'lum va tarjima qilingan, ammo ular kamdan-kam hollarda bir-biri bilan solishtirilgan va taqqoslangan. Kitob davomida koʻplab parchalar asl tilda, ya'ni arab tilida transkripsiya va tarjimalarda keltirilgan [17: 68–71]. Islomgacha boʻlgan davrdagi birlamchi manbalar, aksariyati soʻnggi 30 yilda qoʻlga kiritilgan va kam tarqalgan boʻlsa-da, juda aniqlik bilan ishlatilgan. Bunday holatni ilk islom davri tarixshunosligida uchratish qiyin. Xususan, yozma manbalar, ayniqsa, Mugʻ togʻidan topilgan soʻgʻd hujjatlari va xitoy tilidagi manbalar batafsil keltirilgan. Arxeologik va ikonografik ma'lumotlar esa Eronga nisbatan ancha boy [9].

Kitob ikki qismdan iborat boʻlib, birinchi qismida «Markaziy Osiyo harbiy institutlari» haqida soʻz borsa, ikkinchi qismda «Samarradagi[2] turklar va soʻgʻdlar» haqida soʻz yuritiladi. Asosiy qismlardan oldin mavzuning tarixshunoslik qismi, ulardan keyin esa asosiy xulosalar berilgan. Muallif mamluk instituti tarixshunosligi boʻyicha bir qator asarlarni tahlil qiladi. Jumladan, Patrisia Kroun, Muhammad Shaban, Kristofer Bekvis, Fukuzo Amabe, Peter Golden, Metyu Gordon [4, 16, 3, 1, 6, 7, 8] kabilarning mavzu borasidagi qarashlarini keltirib, mavzuning dolzarbligini asoslashga harakat qiladi [5: 7–14].

Kitobning yangiliklaridan biri shundaki, u yaxlit hudud sifatida talqin qilib kelingan Xuroson paradigmasini soʻroq ostiga oladi. Katta Xuroson fenomeni faqatgina Somoniylar paytidagina reallikka aylandi. Undan oldingi davrlarda esa madaniy va ijtimoiy chegaralar Sosoniy imperiyasi tarkibidagi Nishopur va Marvdan iborat Xurosonning oʻzini (bu hudud Xusrav 1 oʻtkazgan islohot natijasida demilitarizatsiyalangan hududga aylanib qolgan)

---

[1] *Mamluk* – (arabcha: مملوك, "egalik qilingan" yoki "qul") Oʻrta asr islom olamida, ayniqsa, Misr va Shom mintaqalarida, harbiy xizmatga olinib, keyinchalik yirik siyosiy va harbiy lavozimlarga erishgan qullar sinfini anglatadi. Mamluklar dastlab Abbosiylar xalifaligi (749–1258) va boshqa musulmon davlatlarda sultonlar va amirlarning shaxsiy gvardiyasi sifatida xizmat qilgan. Ular asosan turkiy, kavkazlik (cherkes va gruzin), qipchoq va boshqa etnik guruhlardan tanlab olinardi.

[2] Samarra – Iroqning markaziy qismida joylashgan tarixiy shahar boʻlib, Bagʻdoddan taxminan 125 km shimolda, Dajla daryosi boʻyida joylashgan. 836–892-yillar oraligʻida Abbosiy xalifalari Bagʻdoddan Samarraga koʻchib, bu yerni oʻz poytaxti sifatida ishlatgan.

Toxariston va So‘g‘ddan ajratib turgan. Arablar hududni egallab olishi bilanoq hududning haqiqiy egalari va harbiy qudrati bo‘lgan mahalliy elita bilan ittifoq tuzishga majbur bo‘lgan [9].

Ma’munning (hukm. 813–833) g‘alabasidan va ayniqsa Mu’tasimning (hukm. 833–842) taxtga chiqishidan keyin, Markaziy Osiyo harbiy jamiyatining katta qismi Iroqqa ko‘chirildi. So‘g‘d shahzodalari o‘z qo‘shinlari bilan xalifalarga xizmatga o‘tdi, ammo ularning qo‘shinlari qisqa vaqt ichida asir olingan yoki katta yoshida sotib olingan turk jangchilari bilan solishtirganda ozchilik holatiga tushib qoldi. Muallif qo‘llagan prozopografik metod juda samarali bo‘lib, yuqori lavozimdagi shaxslarning obrazini yanada aniqroq va jonliroq qilib tasvirlashga, ularning hayoti va faoliyatini izchilroq tushuntirishga yordam beradi. Paleodemografiyaning eng nozik vositalari yordamida o‘tkazilgan tahlil (VIII bob) aniq ko‘rsatadiki, Samarrada turklar sonining o‘sishi, 840-yilda taxminan 8000 dan 870-yilda taxminan 12 000 gacha ko‘payishi, yangi jangchilarni Markaziy Osiyodan sotib olish hisobiga emas, balki lagerlarda turk qo‘shinlarining tabiiy o‘sishi tufayli sodir bo‘lgan. Markaziy Osiyodan yangi jangchilarni sotib olish esa Tohiriylar davlatining oraliqda joylashgani sababli deyarli imkonsiz bo‘lib qolgan edi. Sharqshunoslikka oid umumiy qarashlarga ko‘ra, al-Mu’tasim tez orada mamluklardan iborat qo‘riqchilarni tashkil qiladi. Ma’mun davrida ham faol bo‘lgan bu amaliyotni al-Mu’tasim yanada tizimli tarzda rivojlantirib, qullardan iborat askarlar korpusini yaratgan. Bu askarlar *g‘ilmon* (birligi: *g‘ulom*) yoki *mamolik* (birligi: *mamluk*) deb atalgan. Xalifa ularni Samarraga joylashtirib, diqqat bilan tarbiyalab va tayyorlab, o‘ziga nisbatan sodiqligini ta’minlagan edi. Mamluk paradigmasi bir necha o‘n yillikdan buyon muhokamalar markazida bo‘lib keldi. Shuni ta’kidlash kerakki, manbalar juda kam (ushbu yondashuv asosi sifatida al-Ya’qubiyning *«Kitāb al-buldān»* («Mamlakatlar haqida kitob») asaridan ikki parchagina mavjud) va ular g‘oyaviy maqsadlar bilan qo‘llanilgan. M. A. Shaban va F. Amabedan farqli ravishda, Etienne de La Vaissiere turk qullarini sotib olinganini inkor qilmaydi, lekin u arab manbalarida sotib olingan asirlarning yoshi haqida hech qanday aniq ma’lumot yo‘qligini alohida ta’kidlaydi. Mamluk paradigma tarafdorlari tez-tez keltiradigan arab matnlarida, «Mu’tasim yoki uning vorislari davrida turk qullarini sotib olish jarayonida bolalar yoki o‘smirlar sotib olingani» haqida hech qanday dalil yo‘q» (213-bet). Bundan tashqari, yangi xalifa shahri Samarrada Markaziy Osiyodan sotib olingan va kuch bilan olib kelingan ko‘plab yosh qullar, ularni bu yerda qattiq harbiy tayyorgarlikdan o‘tkazishgan, degan taxminni tasdiqlovchi kazarma yoki maxsus joylar topilmagan (217-bet). Shahar arxeologiyasi barcha aloqalaridan uzilgan yosh bolalar va harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan va uylangan jangchi turklar mavjudligi haqidagi ma’lumotlarni taqdim etolmagan. Ayniqsa, jamoaviy binolar izlari topilmagan [17: 68–71].

Umuman olganda mamluk instituti Samarra tizimi (xalifa atrofida to‘plangan Markaziy Osiyo elitalaridan iborat kuchli brigadalar) parcha-langandan keyingina vujudga kelgan. Muallif bu jarayonni xalifalar Al-Muvaffaq va Al-Mu’tamid davrida vujudga kelganini ta’kidlaydi. Chunki, Samarra tizimi ko‘plab xalifalarning qatl etilishiga olib keldi va keyingi xalifalar bunda o‘z xavfsizligining xavf ostida ekanini ko‘rdi. Shu tariqa musulmon olamida qul savdosi va qul askarlar tizimi o‘rnashdi. Markaziy osiyolik turk va so‘g‘d askarlari o‘rnini Kavkaz va Xazarlardan sotib olingan qullar egallay boshladi [9].

Umuman olganda, mazkur tadqiqot islomning ilk davrlari va Markaziy Osiyoning mazkur davri tarixshunosligida yangicha yo‘nalish va qarashlarni ilgari surishi bilan ahamiyatli. Muallif arab, fors, so‘g‘d, xitoy manbalarining puxta qayta ko‘rib chiqilishi Markaziy Osiyoning islom olamidagi ahamiyati haqida qanday foydali ma’lumotlar berishi mumkinligini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, mamluk paradigmasini tarixiy jihatdan qayta ko‘rib chiqishning zarurligini ta’kidlaydi. Bu ularning har bir musulmon jamiyatidagi o‘rnini qayta baholashga imkon beradi.

Mazkur davrni to‘liqroq tushunishga imkon beradigan yana bir muhim tadqiqot Yuriy Karevga tegishli. «Samarqand et le Sughd à l’époque ’abbāsside. Histoire politique et sociale» kitobi uning doktorlik dissertatsiyasi (Le palais du VIIIe siècle à Samarkand dans le contexte de l’architecture palatiale préislamique et des premiers temps de l’Islam. Essai d’interprétation historique, Moskva va Parij, 1999-yil, nashr etilmagan)ning mantiqiy davomi sifatida mintaqaning o‘rganilayotgan davrining siyosiy va ijtimoiy tarixini ochib berishda fundamental tadqiqotlardan bo‘lib kelmoqda [12]. Mazkur kitobda muallif mintaqaning Abbosiylar inqilobi boshlanishidan, Somoniylarning hokimiyat tepasiga kelgunga qadar bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tarixini batafsil tadqiq qiladi. Uning yutuqlaridan biri shundaki, u kitobda arxeologik, numizmatik va tarixiy manbalarni, jumladan Xitoy manbalari, shuningdek, 1950-yilgacha chop etilgan rus tilida chop etilgan tadqiqotlardan unumli foydalanadi. U voqealar xronologiyasining aniq tiklashga harakat qiladi. Bundan tashqari, muallif elitlarning evolyutsiyasi va arab-musulmon istilosining mustamlakachilik ta’sirini tahlil qiladi. Ko‘p darajali yondashuv doirasida u Abbosiylarning mahalliy va markaziy hokimiyatlari, bo‘ysun-dirilgan yoki mustaqil qirolliklar hamda tashqi raqiblar (Tang sulolasi yoki turklar) siyosiy tarixini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qiladi [15].

Kitob kirish, 6 bob, xulosaga bo‘lingan bo‘lib, ularga 3 ta xarita va 2 ta ko‘rsatgich ilova qilingan. Boblar xronologik tartibda joylashtirilgan. Birinchi bob «Abbosiylar inqilobi va Abu Muslimning Movarounnahrdagi siyosati»ga bag‘ishlangan bo‘lib, 86 sahifadan iborat va Abu Muslimning Movaroun-nahrda olib borgan qurilish dasturi haqidagi tasvirlarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bob (33 sahifa) «Abbosiylar hokimiyatining mustahkamlanishi» mavzusini ko‘rib chiqadi, bunda Abu Muslimdan Muqannagacha bo‘lgan

davr, hokimlar siyosati va diplomatik aloqalar siyosati, xususan, VIII asr oxirigacha Xitoy bilan davom etgan aloqalar tahlil qilinadi.

Uchinchi bobda Muqanna (vaf. 780) harakati tahlil qilinadi. Bu harakatning muvaffaqiyati arab-musulmonlar tomonidan amalga oshirilgan istilolar va islomlashuvning oqibati sifatida koʻriladi. Toʻrtinchi bob, nisbatan qisqa boʻlib (38 sahifa), VIII asrning oxirgi oʻn yilliklarida hokimlarning siyosati va abbosiy xalifalari bilan sharqiy mahalliy hukmdorlar oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrganadi.

Keyingi bob Rofi ibn Lays isyoniga (806-809) bagʻishlangan boʻlib, bu isyon Muqanna harakatiga oʻxshash tarzda tahlil qilinadi, bunda isyon tarixi va kuchlarini tahlil qilish bilan birga markaziy hokimiyatdan uzoqlashish tendensiyalari va imperiyaning chekka hududlarida yangi elita guruhlarining shakllanishi kontekstida yondashiladi. Oxirgi, 6-bob (28 sahifa), Somoniylarning hokimiyatga kelishini va IX asr boshlarida abbosiy xalifaligi bilan mahalliy elitalar oʻrtasidagi yaqinlashuvni, shuningdek, zodagonlarning islomlashuvini koʻrib chiqadi.

Y. Karevning tadqiqotining asosiy yutuqlaridan biri, shubhasiz, mintaqa tarixining kam oʻrganilgan davrini yoritganidir. Bu asar hududda mustaqil davlatlarning tashkil topish jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Muallif Abbosiylar davriga oid klassik manbalarni qayta koʻrib chiqadi. Garchi bu manbalar islom olamining boshqa hududlariga bagʻishlangan boʻlsa-da, ular Soʻgʻd va Samarqand haqida uncha maʼlum boʻlmagan koʻplab hikoyalarni oʻz ichiga oladi. Bu manbalar qatoriga xitoy manbalari, arab va fors qoʻlyozmalari ham qoʻshilgan, shu bilan birga al-Nasafiyning toʻliq Samarqandga bagʻishlangan *«Kitāb al-Qand fi tarixi Samarqand»* («Samarqand tarixi boʻyicha qand kitobi») asari ham kiritilgan. Muallif shuningdek, Samarqand va Soʻgʻd mintaqasida 1990–2000-yillarda oʻtkazgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan tangalar va boshqa moddiy manbalardan ham keng foydalangan [13].

Muallifning mazkur tadqiqoti fundamental boʻlishi va mazkur davr tarixi uchun muhim manba boʻlib xizmat qilishi bilan birga, bir qator kamchiliklardan ham xoli emas. Masalan, «Kitab al Qand» asaridan keltirilgan iqtibos uning qaysi shaklidagi nusxadan olingani izohlanmagan. Yaʼni arab tilidagi asl manbadanmi yoki fors tilidagi tarjimasidan ishlatilganiga oid izoh bermagan. Shuningdek, transliteratsiyada ham juzʼiy kamchiliklar koʻzga tashlanadi [2]. Tarix fanlari doktori Shamsiddin Kamoliddinov fikricha, kitobning nomi unda oʻrganilgan davr bilan unchalik ham mos emas. Uning fikricha, Markaziy Osiyodagi Abbosiylar davrining Somoniylar hokimiyatga kelishi bilan cheklanishi huquqiy jihatdan toʻgʻri emas. Chunki mintaqadagi Abbosiylar sulolasi hukmronligi XIII asr boshigacha davom etgan, ularning hokimiyati Chingizxon tomonidan tugatilgan. Yevropa tarixshunosligida qabul qilingan qarash shunday. Sovet tarixshunosligida esa Markaziy Osiyodagi arab xalifaligining hukmronligi mustaqil sulolalar yoki davlatlar

hokimiyatga kelishi bilan yakunlangan. Bunday sulolalar (davlatlar) dan biri, shubhasiz, Somoniylar. Huquqiy tamoyillar asosidagi «davlatchilik» davlat hokimiyatining shakllanishi va boshqaruv tizimlarini belgilashda huquqiy tamoyillar va tartib-qoidalar bilan mos kelishi lozim. Qonunchilik nuqtai nazaridan, Somoniylarning boshqaruv tizimi, shuningdek, ularning hukmronligi mustaqil davlat sifatida qaralishi mumkin emas. Samoniylar xalifalik hukmronligi ostida bo‘lib, ular rasmiy jihatdan xalifa tomonidan tan olingan va ma’lum darajada unga bo‘ysunishgan. Shuning uchun ularning davlatchiligi huquqiy mustaqillik mezonlariga to‘liq javob bermagan. Garchi Abbosiy xalifaligidagi markaziy hokimiyat sezilarli darajada zaiflashgan va mintaqalarda mahalliy ma’muriyatlarning roli kuchaygan bo‘lsa-da, barcha mahalliy sulolalar, jumladan, Samoniylar ham rasman Bag‘dod xalifalariga bo‘ysungan va ularning oliy hokimiyatini tan olgan. Huquqiy jihatdan, o‘sha davrda qonunlar shariat bilan belgilanardi, va bu sulolalar xalifalarning mintaqaviy noiblari sifatida qaralgan. Ular faqat ma’muriy boshqaruv va xo‘jalik ishlarida keng huquq va vakolatlarga ega bo‘lishgan, bu huquqlar ularga xalifalar tomonidan berilgan [11: 117–127].

Ko‘p hollarda matnda keltirilgan ma’lumotlar kontekst, voqealar taqvimi yoki turli aktorlar o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati haqidagi taxminlarga asoslangan bo‘lib, bu taxminlarning ayrimi ishonarli bo‘lsa, ayrimi ishonarsiz (82, 86, 93, 101-betlar). Ayniqsa, «Hamma asoslarimiz bor deb taxmin qilishimiz mumkin», «taxmin qilish mumkinki», «o‘ylash mumkinki», «ehtimoli katta», «balki», «istisno qilish mumkin emas» kabi iboralarning tez-tez ishlatilishi bu holatni yanada ko‘rsatib beradi. Ayrim betlarda to‘rttagacha taxmin yoki farazlarni uchratish mumkin (105, 109, 137, 148-betlar). Shuningdek, Abu Muslim tomonidan jihodning qayta faollashuviga bag‘ishlangan bo‘lim (89-bet va keyingi sahifalar) hech qanday manba iqtibosi asosida yozilmaganligini va bu keng mavzu bo‘yicha A. Morabia (Le Ğihâd dans l’Islam médiéval, A. Michel, 1993) yoki M. Bonner (Le jihad : origines, interprétations, combats, Téraèdre, 2004) kabi muhim asarlarga murojaat qilinmaganligini afsus bilan ta’kidlash kerak [14: 50–52].

Xulosa. Yuri Karevning mazkur tadqiqoti o‘rganilayotgan davr tarixini aniqroq tasavvur qilish uchun juda boy va keng ma’lumotlarni taqdip etishi bilan qadrlanadi. Umuman olganda yuqoridagi ikki tadqiqot ham Markaziy Osiyo, xususan, Movarounnahrni Katta Xurosonning bir qismi emas, balki alohida geosiyosiy birlik sifatida o‘rganilishini ilgari surgan taqdqiqot sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amabe F. The Emergence of the ’Abbasid Autocracy. The ’Abbasid Army, Khurasan and Adharbayjan. – Kyoto: Kyoto University Press, 1995

2. Azad A. Samarqand et le Sughd à l'époque 'abbāsside: Histoire politique et sociale. By Yury Karev. // JAOS, 139(2), 523–525 p. https://doi.org/10.7817/jameroriesoci.139.2.0523
3. Beckwith C. Aspects of the early History of the Central Asian Guard Corps in Islam // Archivum Eurasiae Medii Aevi, 4, 1984. – P. 29–43.
4. Crone P. Slaves on Horses. The evolution of the Islamic polity – Cambridge: Cambridge University Press, 1980.
5. De La Vaissière E. Samarcande et Samarra. Élites d'Asie centrale dans l'empire abbasside. – Paris, 2007.
6. Golden P. Khazar Turkic Ghûlams in Caliphal Service // Journal Asiatique, 292, 2004. – P. 279–309.
7. Golden P. The Terminology of Slavery and Servitude in Medieval Turkic // in D. DeWeese (éd.), Studies on Central Asian History in Honor of Yuri Bregel, Bloomington : Indiana University, 2001. – P. 27–56.
8. Gordon M. The breaking of a thousand swords: A history of the Turkish community of Samarra (218-264 A.H./833-877 C.E.) – Columbia University, 1993.
9. Grenet F. É. de La Vaissière. Samarcande et Samarra. Élites d'Asie centrale dans l'empire abbasside. – Paris, 2007. – 310 p. 11 figs. dans le texte, index. (Studia Iranica, Cahier 35)//Abstracta Iranica [Online], Volume 30 | 2010, document 135 // https://doi.org/10.4000/abstractairanica.37775
10. Grenet F. Histoire et cultures de l'Asie centrale préislamique // Annuaire du Collège de France 2018–2019. Résumé des cours et travaux, 119e année. – Paris: Collège de France, 2022. – P. 443–471. https://doi.org/10.4000/annuaire-cdf.17234
11. Kamoliddin Sh. Yuri Karev. Samarqand et le Sughd à l'Époque 'Abbaside: Histoire Politique et Sociale / Studia Iranica. Cahier 55. Paris: Association pour l'Avancement des Etudes Iraniens, 2015. // Sharqshunoslik / Востоковедение / Oriental Studies. № 1. – Tashkent, 2016. – P. 117–127.
12. Karev Y. Samarqand et le Sughd à l'époque 'abbāsside. Histoire politique et sociale, Paris, Association pour l'avancement des études iraniennes, 2015.
13. Rébillard E. KAREV Yury. Samarqand et le Sughd à l'époque abbāsside. Histoire politique et sociale. – Paris, Association pour l'avancement des études iranienne, 2015. – 372 p. // Revue des mondes musulmans et de la Méditerranée [En ligne], 147 | 2020 // https://doi.org/10.4000/remmm.12946
14. Rhoné-Quer C. Karev Yury, Samarqand et le Sughd à l'époque abbāsside. Histoire politique et sociale. – Paris, Association pour l'avancement des études iraniennes, 2015. // Bulletin critique des annales islamologiques, n°31, 2017. – P. 50–52.

15. Rhoné-Quer C. Yury Karev. Samarqand et le Sughd à l'époque 'abbāsside. Histoire politique et sociale // Abstracta Iranica [Online], Volume 37-38-39|2018 // https://doi.org/10.4000/abstractairanica.47421
16. Shaban M. Islamic History: a new interpretation – Cambridge, 1976
17. Zouache A. De La Vaissière Étienne, Samarcande et Samarra. Élites d'Asie centrale dans l'Empire abbasside. Paris, Association pour l'avancement des Études iraniennes (Cahiers de Studia Iranica, 35). In: Bulletin critique des annales islamologiques, n°27, 2012. – P. 68–71.

Xidirova Go'zal Rustam qizi[1]

«TARIXI RASHIDIY» ASARIDA GIDRONIMLAR TAVSIFI

DESCRIPTION OF HYDRONYM IN THE WORK «HISTORY OF RASHIDI»

Abstract. *The names of natural objects are considered to be the oldest names in toponymy and information about them is also found in written sources. In this article, the names of water objects related to Central Asia are classified based on the work «History of Rashidi» which was written by the historian and statesman Mirza Muhammad Haydar, who lived and worked in the XVIth century. According to study on the work, 58 types of big and small hydronyms (water names) are mentioned in the description of various historical facts. Their etymology goes back to Sogdian, Arabic, Sanskrit, Mongolian, Turkish, Persian and various other languages and has been interpreted differently by scholars. In the naming of some hydronyms, it is possible to see their connection with ethnonyms. In the article, we tried to give the analysis of the water names, which etymology has a Turkic basis, related to this period.*

Key words: *«History of Rashidy», 16th century, toponym, hydronym, ethnonym.*

Mirzo Muhammad Haydar (1499–1551) qalamiga mansub *«Tarixi Rashidiy»* asari Temuriylar va Shayboniylar davri Markaziy Osiyo toponimiyasini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Markaziy Osiyoning XV–XVI asrlardagi tabiati – relyefi (tog'lar, dasht va cho'llar) bilan bog'liq nomlar, suv obyektlari (dengizlar, daryolar, ko'llar va b.) bilan bog'liq nomlar qayd qilingan.

Katta suv havzalarining nomlari odatda qadim zamonlardan beri mavjud. Ko'p hollarda ular daryo va ko'llar bo'yida keyinroq paydo bo'lgan aholi punktlarining nomlariga qaraganda qadimiyroqdir [1: 8]. Yozma

[1] O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiaysi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
E-mail: gozalxidirova4@gmail.com.

M U N D A R I J A

SO‘ZBOSHI 3

TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK

Allayeva N.A. *Bobojon Safarovning «Xorazm xonliklariga tegishli tarixiy materiallar» asari borasida* 5
Пуговкина О. *Дневники О.Н. Маллицкой: об эпохе и судьбе русской интеллигенции* 9
Mehti-zade S.Ç. *Azerbaycan’ın ortaçağ kentleri Evliya Çelebi’nin «seyahatname»sinde* 16
Aminov H.A. *Ismoil Gaspiralining «Turkiston lamosi» asari haqida.* 22
Muhammadaminov S.M. *Movarounnahrda mug‘ullar davriga oid qozilik ishlarini yuritishga doir ikki asarning qo‘lyozmalari xususida* 29
Lutfillayev H.M. *Temuriylar davri tafsirlarida moturidiylik ta’limoti* 35
Abdupattayev M.M. *Ibn Xaldunning «Muqaddima» asarida yahudiylik va xristianlik dini rohiblari funksiyalarining yoritilishi* 39
To‘rayev L.A., Nizomova N.Q. *Mahmud Zamaxshariy «Rabi’ al-abror» asarining Yevropadagi qo‘lyozmalari tavsifi.* 42
Jaynarov O.H. *O‘zbekiston Milliy arxivining R-904 fondi advokatura tizimida o‘tkazilgan «tozalash» siyosatini yoritish manbasi sifatida.* 50
Musametov B.E. *Ibn Sinoning «Yurak dorilari» nomli risolasining 12-fasli haqida* 55
Abdurazzoqova-Abduraxmonova Y.M. *«Fotuhati shohiy» asari XVI asr Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba sifatida.* 61
Faromarzi F., Vohidova M. *Esdaliklar tarixiy manba sifatida (Mirzo Rahimbekning «Esdaliklar» asari misolida).* 66
Fayzullayev F.E. *Fazlulloh Ibn Ruzbehonning «Suluk al-muluk» asarining tadqiqi va tasnifi* 76
Kuranbayeva U. *Bir jumlada ikki asr tarixi bayoni.* 81
Mamadjanov A.A. *«Tuhfat al-xoniy» Mang‘itlar davri etnik hayotiga oid muhim manba* 85
Murodova R.D. *O‘zbekiston muzeylarida restavratsiya laboratoriyalarining tashkil topishi* 91
Nasirillayeva N.F. *Abdulla Nosirov yozma merosi va uning tasnifi* 97
Ostonov J.D. *Markaziy Osiyoning islomlashuviga bag‘ishlangan fransuz tilidagi ba’zi tadqiqotlar* 105
Xidirova G.R. *«Tarixi Rashidiy» asarida gidronimlar tavsifi* 112
Хуснутдинов Ф.Р. *Утерянный автограф зачётного сочинения А.Э. Шмидта о четверостишиях Хафиза* 117
Чориев Ш.Х. *Источнико-архивоведческий анализ банковского дела Туркестанского генерал-губернаторства* 121
Saparov S.X. *O‘zbekistonlik olimlarning kidariylar bo‘yicha tadqiqotlari.* 129

Ishiyama M. *The articles of Zarif Bashiri in The Turkistan Communist Party Newspaper «Turkiston»*. 134
Идиев А. *Китобат ул-атфол: Вклад Махмудходжи Бехбуди в развитие образования в Туркестане* 143

MARKAZIY OSIYO TARIXI

Sultonov O‘.A. *Turkiston xonliklari saroy devonxonasi shakllanishi masalasiga doir*. 149
Rahimov K.R. *O‘rta asr Buxoro kutubxonalari tarixidan*. 157
Jamolova D.M. *Hoji Muin publitsistikasida Turkiston tarixi masalalari*. 162
Azizpour Sh. *Persian-Central Asian artistic encounters on The Silk Road: Bandian & Panjikent in visual dialogue* 169
Axmatov A. *Buxoro jadid adabiyoti vakillarining 1917–1920-yillardagi taqdiri*. . 178
Djumaniyazova F. *Ilk «Turkon» Xotun – Xunak Xotun yoki Qabaj Xotun, Xunakxudot – Buxoroning ilk o‘rta asr turkiy hukmdorlari*. 182
Ismoilov Sh.Z. *X–XI asrlarda Xorazm aholisining etnik va diniy tarkibi (manbalar tahlili asosida)*. 189
Misa H.R. *O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi bo‘yicha yangi tadqiqotlar: savdo aloqalari va iqlimshunoslik misolida*. 195
Karimov Sh.Sh. *Qo‘shvazirlik – Temuriylar davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos tizim*. 200
Адилов Дж. *Герб Туркестанского генерал-губернаторства: история создания и его семантика*. 206
Aslonova A.A. *Buxoro adıblarınıng pedagogık faolıyati*. 213
Ermatova M.A. *Amudaryo bo‘limining mahalliy sud tizimida ayollarning o‘rni* 217
Hamrayev S. *Enazar elchi madrasasini Yekaterina II qurdirganmi?* 222
Jumaeva N.A. *From the history of the farming culture in Lower Zarafshan oasis (during late XIXS and early 20s)*. 228
Nosirov Sh.O‘. *Buxoro amirligidagi aprel voqealarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ishtiroki* 237
Quvvataliyev U.B. *Bo‘lat Soliyevning «O‘rta Osiyo tarixi» asari haqida* 241
Suvonkulov M. *Jizzax vohasi «turk» guruhining moddiy madaniyati (kiyim-kechak va uni tayyorlash asboblari misolida)* 246
Toshtemirova Sh.Sh. *Avestoda ayollar: muqaddas obraz, ijtimoiy mavqe va unutilgan tenglik* 253
G‘oyibnazarova M.O‘. *Mahmudxo‘ja Behbudiy: urf-odat va an’analar haqida*. 259
To‘rayeva G.B. *O.A. Suxareva tadqiqotlarida Buxoro shahrida suv ta’minoti, hovuzlar va bog‘lar joylashuvi haqidagi ilmiy-tarixiy mulohazalar* 264

ISLOMSHUNOSLIK

Usmanov I.S. *Hanafiy mazhabida shar'iy hiylalar*. 272
Ismatova N.A. *Buxoro amirligida pul vaqflaridan foydalanish amaliyoti (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)* 280
Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г.У. *Проблема понимания и внедрения термина «Арабо-мусульманская культура» в исторических и исламоведческих дисциплинах* 284
Jumaniyozov M.D. *«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar tahlili*. 291
Jo'rayev M.X. *Islom ilmlari tarixida hadis ta'limi*. 304
Mirzayev N.M. *Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy merosi xususida*. 310
Dadamirzaev M.O. *Mavlono Sobitxonto'ra Namangoniy – Farg'ona fiqh maktabi vakili*. 315
Salimova D.A. *«Al-Isloh» jurnalida bank muomalasiga oid masalalar muhokamasi*. 320
Samsakova H. *Naqshbandiya-mujaddidiyaning Toshkent tarmog'i: Abdulmajidxon Eshon silsilasi*. 326
Sayfullaev M.S. *«Al-Izoh» jurnalining Turkiston matbuotidagi o'rni*. 330
Yunusova S.O. *«Al-Isloh» jurnalida «kiyim va qiyofat» mavzusi muhokamasi* . . 334
Hamdamova Sh.V. *Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy – kubraviya tariqatining yetuk namoyondasi*. 341

XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI

Karimov B.R. *O'rtaturk tili va o'rtabitik yozuv tizimining turkiy tamaddun tillari rivojidagi o'rni* 347
Yanar C. *Türk dünyasi dokuma mirasinda samsun yöresi dokumalardan bazi nakişlar (elibelinde, koçboynuzu, sandık, çakmak, çapraz)*. 353
Пилипчук В.Я. *К истории басмыльской государственности*. 363
Memmedova M.N. *Azerbaycan ve özbek halk kültüründe doğum ritüelleri* 365
Özkurt K. *From context to text: The foundation inscriptions of the tombs of the two enemy brothers Amir Timur and Yildirim Bayezid* 378
Тохтиев Ш.Р. *Социальная реклама и тематические особенности рекламного текста социальной направленности в Иране* 391
Xodjimuratova D.S. *Eron tarixida islom inqilobini eksport qilish tajribasi va uning oqibatlari*. 398
Kamoliddinov F.B. *Qirg'iziston va Ko'rfaz arab davlatlari: tarixiy aloqalar va zamonaviy hamkorlikning rivojlanish masalalari* 404
Nurumbetova S.R. *Afg'onistonda islomiy yo'nalishdagi ilk siyosiy tashkilot «Musulmon yoshlari»ning vujudga kelish tarixi* 409
Tojiev D.B. *Consultative meeting of Central Asian state leaders: historical context and future prospects* 413

Xamdamov E.I. *Ziyo Go‘kalp qarashlarida ixtiyoriy hayotni tushunish* 421
Xomidov D.I. *Jamoliddin Afg‘oniy diniy-falsafiy qarashlarining Nosirxon To‘raga ta’siri* 428
Yuldashov Sh.A. *XX asrning birinchi yarmidagi Sharqiy Turkiston madaniy hayoti* 432
Шаймергенова Г.А., Байдаров Е.У. *Перспективы развития ШОС в контексте Казахстанско-Китайского стратегического партнерства* 437

FILOLOGIYA

To‘xliyev B., Qurbanboyeva Z. *Ayyub – o‘zbek adabiyoti tarixidagi yangi nom* 443
Eshonova S.N. *Devonlar yig‘ma matni: talqin va yondashuvlar* 450
Kasımova S.A. *Masallarda karaçuha imgesinin epik-mifoloji anlam özellikleri* . . .455
Madaliyeva O.R. *Alisher Navoiy «Badoyi’ ul-bidoya»si qo‘lyozmalari: alif harfiga qofiyalanuvchi g‘azallarning matn tafovutlari* 462
Mehman A.H. *The creation of the Turkic peoples’ novel in the context of world literature.* 481
Rahmatova G.O. *«Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirilgan she’rlarni tadqiq etish usullari.* 487
Sulaymonova H.M. *«Rasailu-l-Xavarazmiy» asari arab epistolyar adabiyoti namunasi sifatida* 493
Mahmadrajabov F.D. *Badri Chochiy devonining O‘zbekiston va Erondagi qo‘lyozmalari* 499

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Manzil: Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 79.
Telefon: +998 71 262 54 61.
Faks: +998 71 262 52 77.
E-mail: berun1@academy.uz

